

Elbarsxon I



Elbarsxon I

(?-1516),

(1511-1516)

Xorazmda hukmron bo'lgan **shayboniylar sulolasi** asoschisi va xoni, **Berka Sultonning** o'g'li **Chingizxonning** nabirasi **Shaybon** avlodidan. Otasi **Berka sulton Shayboniyxon** tomonidan qatl qilingandan so'ng (XV asrning 80 yillarida), ukasi **Bilbars** bilan o'z ulusi (Sirdaryoning quyi oqimida) istiqomat qilgan. 1510 yilda safaviylar hukmronligiga qarshi Xorazmda Umar boshchiligida qo'zg'olon boshlanadi. Xorazmda hokimiyat tepasiga yangi sulola vakili kelishini mashhur Sayidota ajdodi uyushtirdi. Uning tashabusi bilan Shayboniyxon tomonidan qatl etilgan Berka Sultonning o'g'li Elbarsxon taxtga o'tkaziladi. 1511-1512 yillarda Elbarsxon boshchiligida Xorazm xalqi Eron qo'shinlarini mamlakatdan quvib chiqaradi. Shu tariqa 1511 yilda Xorazm mustaqilligi tiklandi. Elbarsxon davrida mamlakat poytaxti Vazir shahridan Urganch shahriga ko'chirildi. Elbarsxon Vazir shahrini Eron qozilbosh qo'shinlaridan ozod etgach, bu g'alaba sharafiga o'z o'g'illari nomiga "g'ozl" laqabini qo'shib aytishni buyurgan. Oradan ko'p vaqt o'tmay, Elbarsxon Urganch, Xiva, Hazoraps, Qiyot va Tirsak shaharlaridan safaviylarni quvib chiqardi.

Elbarsxon davridayoq xonlikning siyosiy geografiyasi shakllanib bo'lgan. Chunonchi, xonlik g'arbda Kaspiy dengizi, shimolda Orol dengizi, janubda esa Atrek daryosi va Saraxs atroflarigacha bo'lgan hududlarni o'z ichiga olgan. Uning davlati markazlashmagan, kuchsiz bo'lib, mayda uluslarga taqsimlangan holda boshqarilgan. Mazkur uluslar Elbarsxon hokimiyatiga tobe hisoblansa-da, amalda mustaqil idora qilingan. Elbarsxon davrida Dashti Qipchoqdan Xorazmga ko'chmanchi qabillarning ko'chib kelishi yanada kuchaydi. Natijada,

xonlik hukmdorlarining ijtimoiy tayanchi mustahkamlandi.

2023-11-05 12:15:35